

## Expression Of Denotative And Connotative Meaning In The Translation Of Financial-Economic Texts

Abdullaeva Shokhida Norkulovna

Doctor of Philosophy (DSc) of Translation Theory, UZDJTU

Tel: 97 4244466

**Annotation.** This article examines the representation of denotative and connotative meanings in the translation of financial and economic texts. The study focuses on how economic terms, formal expressions, evaluative units, and stylistic devices are rendered in translation with semantic accuracy. Although financial and economic texts primarily aim to convey precise conceptual and logical information, in some cases connotative meaning, including evaluation, expressiveness, pragmatic effect, and authorial attitude, also plays an important role. The article argues that denotative meaning is mainly realized through terminological precision and semantic equivalence, whereas connotative meaning emerges through context, style, discourse environment, and pragmatic function. In addition, the paper illustrates, with examples, such issues as semantic loss, stylistic neutralization, excessive generalization, and weakening of emotional-expressive coloring in the translation of financial and economic units between English and Uzbek. The study concludes that in the translation of financial and economic texts, not only terminological consistency but also the preservation of the communicative-pragmatic load of the text is an essential condition for translation adequacy.

**Keywords:** Financial and economic text, translation, denotative meaning, connotative meaning, semantics, pragmatics, terminology, translation adequacy, stylistic feature, economic discourse.

## Moliyaviy - Iqtisodiy Matnlarning Tarjimasida Denotativ Va Konnotativ Ma'nolarning Ifodalanishi

Abdullayeva Shoxida Norqulovna

O'ZDJTU tarjima nazariyasi dotsenti f.f.doktori (DSc)

Tel: 97 4244466

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilish jarayonida denotativ va konnotativ ma'nolarning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtisodiy terminlar, rasmiy iboralar, baholovchi birliklar hamda uslubiy vositalarning tarjimada qay darajada semantik aniqlik bilan berilishi masalasi yoritiladi. Moliyaviy-iqtisodiy matnlar, avvalo, aniq tushuncha va mantiqiy mazmunni ifodalashga xizmat qilsa-da, ularda ayrim hollarda konnotativ ma'no, ya'ni baholash, ekspressivlik, pragmatik ta'sir va muallif munosabati ham muhim o'rin tutadi. Maqolada denotativ ma'no asosan terminologik aniqlik va mazmun mutanosibligi orqali, konnotativ ma'no esa kontekst, uslub, diskursiv muhit va pragmatik vazifa orqali yuzaga chiqishi asoslab beriladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi moliyaviy-iqtisodiy birliklarning tarjimasida ma'no yo'qotilishi, uslubiy neytrallashtirish yoki emotsional-ekspressiv rangning susayishi kabi holatlar misollar asosida ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida moliyaviy-iqtisodiy matnlar tarjimasida nafaqat terminologik muvofiqlikni, balki matnning kommunikativ-pragmatik yukini saqlash ham tarjima adekvatligining muhim sharti ekanligi xulosalanadi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy-iqtisodiy matn, tarjima, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, semantika, pragmatika, terminologiya, tarjima adekvatligi, uslubiy xususiyat, iqtisodiy diskurs.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности выражения денотативных и коннотативных значений при переводе финансово-экономических текстов. В исследовании анализируются вопросы семантической точности передачи экономических терминов, официальных выражений, оценочных единиц и стилистических средств в переводе. Хотя финансово-экономические тексты в первую очередь служат для передачи точного понятийного и логического содержания, в ряде

случаев в них важную роль играет и коннотативное значение, то есть оценочность, экспрессивность, прагматическое воздействие и авторское отношение. В статье обосновывается, что денотативное значение проявляется главным образом через терминологическую точность и смысловое соответствие, тогда как коннотативное значение раскрывается через контекст, стиль, дискурсивную среду и прагматическую функцию. Также на примерах показаны случаи смысловых потерь, стилистической нейтрализации, чрезмерного обобщения или ослабления эмоционально-экспрессивной окраски при переводе финансово-экономических единиц с английского языка на узбекский и наоборот. В результате исследования делается вывод о том, что при переводе финансово-экономических текстов важным условием адекватности перевода является не только сохранение терминологического соответствия, но и передача коммуникативно-прагматической нагрузки текста.

**Ключевые слова:** финансово-экономический текст, перевод, денотативное значение, коннотативное значение, семантика, прагматика, терминология, адекватность перевода, стилистическая особенность, экономический дискурс.

Moliyaviy-iqtisodiy terminlarning semantik tahlili lingvistika va iqtisodiyot fanlari tutashgan nuqtada shakllangan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, terminlarning lug‘aviy va kontekstual ma‘nolarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu tahlil terminlarning aniq ma‘nosini belgilash, ularni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash hamda fanlararo tushunishni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Semantik o‘zgarishlarning tahlili nafaqat moliya - iqtisod matnlarining tushunilishi, balki tarjima jarayonida terminlarning to‘g‘ri ekvivalentini topish uchun ham zarur. Bu jarayon denotativ va konnotativ yondashuvlarga asoslanib, terminlarning iqtisodiy tizimdagi vazifasini aniqlashga yordam beradi.

Denotatsiya va konnotatsiya tushunchalari dastlab J.S. Mill tomonidan 1843-yilda “*A System of Logic*” asarida taqdim etilgan bo‘lib, bu nazariy yondashuv keyinchalik semiotika, lingvistika va iqtisodiy tahlil sohalarida keng qo‘llanilgan<sup>1</sup>.

Denotatsiya terminning asosiy, obyektiv ma‘nosini bildirsa, konnotatsiya uning ramziy, hissiy va kontekstual talqinlarini o‘z ichiga oladi. Moliyaviy-iqtisodiy terminlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish ularning lug‘aviy va iqtisodiy tizimdagi funksiyalarini aniqroq tushunishga yordam beradi<sup>2</sup>. Olim denotatsiyani so‘z yoki belgining obyektga bevosita ishora qiluvchi asosiy ma‘nosi sifatida ta‘riflagan. Bu lug‘aviy ma‘no bo‘lib, iqtisodiy kontekstda obyektiv iqtisodiy hodisani aks ettiradi. Konnotatsiya esa so‘zning kengroq ramziy ma‘nosini, uning hissiy, madaniy va iqtisodiy talqinlarini o‘z ichiga oladi.

A.Abdullayevning fikricha: “Konnotativ qatlam tilning estetik, emotsional va ekspressiv boyligini tashkil qiladi. Bu qatlam orqali so‘zlar faqat nomlash emas, balki baholash va ta‘sir o‘tkazish vazifasini ham bajaradi”<sup>3</sup>. S.Sultonsaidova, U.Sharipovalar esa “konnotativ ma‘nolar so‘zlarning nutqdagi ta‘sirchanlik darajasini oshiradi va ularni emotsional bo‘yoq bilan ta‘minlaydi”, deb hisoblashadi<sup>4</sup>.

Konnotativ ma‘nolar tarjima jarayonida semantik ekvivalent tanlashdan tashqari, so‘zning baholovchi, madaniy va stilistik qatlamlarini to‘g‘ri talqin etishni ham talab qiladi. Baholovchi konnotatsiya so‘zning ijobiy yoki salbiy emotsional ohangda ishlatilishini bildiradi. Konnotativ ma‘nolarning tarjima jarayonida pragmatik muvofiqlik va madaniy kontekstni hisobga olgan holda chuqur tahlil qilinishi zarur bo‘ladi. Chunki, konnotatsiya orqali nafaqat semantik mazmun, balki so‘zning baholovchanlik darajasi, uslubiy ohangi va madaniy jihatlari ham ifodalanadi.

Moliyaviy - iqtisodiy matnlarning tarjimasida konnotativ ma‘nolarni to‘g‘ri talqin qilish terminlarning semantik izchilligi va kommunikativ samaradorligini ta‘minlaydi. Ushbu yondashuv nafaqat lingvistik moslikni, balki iqtisodiy diskursning madaniy va pragmatik moslashuvini ham ta‘minlashga xizmat qiladi<sup>5</sup>.

D.A. Kruznig ta‘kidlashicha, “denotativ ma‘no - bu biror ifoda (so‘z, bir nechta so‘zlardan iborat birlik yoki sintaktik tuzilma)ning ma‘lum bir ma‘noda ifodalashi mumkin bo‘lgan obyektlar to‘plamini yoki qamrovini anglatadi. Ushbu tushuncha nafaqat abstrakt tuzilmalarni, balki ularning tarkibiy qismlarini ham

<sup>1</sup> Mill J.S. *A system of logic: Ratiocinative and inductive.* – Oregon: University Press of the Pacific, 2002. – p. 125

<sup>2</sup> O‘sha manba. – pp. 21-25.

<sup>3</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 120 б.

<sup>4</sup> Султонсаидова С., Шарипова У. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Халқ таълими, 2009. – 240 б.

<sup>5</sup> Newmark P. *A textbook of translation.* – New Jersey: Prentice-Hall International, 1988. – p. 39.

o‘z ichiga oladi”<sup>6</sup>. Shuningdek olimning ta’rifiga ko‘ra, denotativ ma’no so‘zning lug‘aviy va strukturaviy xususiyatlarini aniqlashga imkon beruvchi keng qamrovli tushuncha hisoblanadi.

Konnotativ ma’no - so‘zlarning qo‘shimcha hissiy va madaniy konteksti moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilish va talqin etishda muhim rol o‘ynaydi. Turli madaniyatlarda bir xil moliyaviy-iqtisodiy terminlar turlicha tushunilishi mumkin. Masalan, “*kredit*” ba’zi jamiyatlarda iqtisodiy imkoniyat sifatida ko‘rilsa, boshqalarda *moliyaviy-iqtisodiy qaramlik* yoki *xavf* bilan bog‘lanadi. Ushbu omillarni hisobga olish tarjimada madaniy moslashuvni ta’minlab, kommunikativ samaradorlikni oshiradi.

Denotativ ma’no esa so‘zning lug‘aviy, obyektiv va universal ma’nosini ifodalaydi. Moliya-iqtisod terminologiyasida bu tushunchalar aniq va standartlashtirilgan bo‘lib, ilmiy va iqtisodiy terminlar lug‘atlarida aniq belgilangan. Shunday qilib, moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda denotativ aniqlikni saqlash bilan birga, konnotativ ma’nolarni kontekstga moslashtirish zarur.

Tarjimada semantik ma’no turlarini tasniflash bo‘yicha G.Lich<sup>7</sup>, J.Layons<sup>8</sup>, J.R. Searl<sup>9</sup>, S.Sultonsaidova, U.Sharipova<sup>10</sup>, D.Babaxanova<sup>11</sup>, E.Qilichev, B.Qilichev<sup>12</sup>, A.Abdullayev<sup>13</sup> kabi olimlar tomonidan turli nazariy qarashlar ilgari surilgan bo‘lsa ham, ushbu yondashuvlar umumiy tilshunoslik kontekstida shakllangan bo‘lib, ixtisoslashgan, xususan, moliyaviy - iqtisodiy matnlarga xos semantik holatlarni to‘liq qamrab olmaydi. Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqotda mavjud nazariy manbalarga tayanilgan holda, moliya-iqtisod kontekstida keng uchraydigan semantik ma’no turlari amaliy kuzatuv va matn tahlillari asosida umumlashtirilib, funksional ehtiyojga mos holda tasnif shakllantirildi. Ilk bora ushbu semantik turlar moliyaviy - iqtisodiy matnlar doirasida tizimli tarzda ajratilib, tarjima jarayonida ularning roli va ifoda imkoniyatlari tahlil qilindi (2.4-jadvalga qarang). Ta’kidlash joizki, konnotativ va hissiy-ta’sirli ma’no o‘rtasidagi noaniqlik tarjimashunoslikda alohida o‘rganiladi. Moliyaviy - iqtisodiy matnlar tarjimasida konnotativ ma’noning turli shakllarda namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

#### 2.4-jadval

**Konnotativ ma’no turlari**

№	Turi	Tavsif
1.	Assotsiativ ma’no	so‘z yoki ifodaning turli bog‘lanishlar orqali hosil qilgan qo‘shimcha ma’nosi
2.	Munosabatni bildiruvchi ma’no	ifodaning ma’lum bir munosabat yoki nuqtayi nazarni ifodalashdagi roli
3.	Hissiy ma’no	ifoda orqali o‘quvchida yoki tinglovchida hosil bo‘ladigan his-tuyg‘ular
4.	Alluziv ma’no	tarixiy, madaniy yoki diniy ma’lumotlarga havola beruvchi ma’no
5.	Aks etuvchi ma’no	so‘zning boshqa kontekstlarda ishlatilishidan olingan qo‘shimcha ma’no
6.	Tanlov cheklovlariga bog‘liq ma’no	til strukturasi grammatik yoki semantik cheklovlardan kelib chiqadigan ma’no
7.	Kollokativ ma’no	ifodaning boshqa so‘zlar bilan birga qo‘llanganda yuzaga keladigan ma’nosi
8.	Geografik dialekt ma’nosi	ifodaning ma’lum bir hududga xos bo‘lgan o‘ziga xosligi
9.	Sotsiolektga bog‘liq ma’no	ijtimoiy qatlamga xos bo‘lgan ifoda usuli
10.	Ijtimoiy uslubga oid ma’no	rasmiy yoki norasmiy uslubning ma’noga qo‘shgan ahamiyati

<sup>6</sup> Cruse D.A. Lexical semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – pp. 49-50.

<sup>7</sup> Leech G.N. Semantics: The study of meaning. – London: Penguin Books, 1981. – pp. 23-45:

<sup>8</sup> Lyons J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – Vol. 2. – pp. 108-130.

<sup>9</sup> Searle J.R. Speech acts: An essay in the philosophy of language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – pp. 30-52

<sup>10</sup> Султонсаидова С., Шарипова У. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Халқ таълими, 2009. – 240 б.

<sup>11</sup> Бабаханова Д., Нумонов Т., Иминов М. Ўзбек тили услубияти масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – 166 б.

<sup>12</sup> Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Бухоро: Бухоро давлат университети нашриёти, 2002. – 168 б.

<sup>13</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 120 б.

11.	Asosiy ma'no	kontekstga qarab bosh ma'noni aniqlash
12.	Lokutsiyani cheklovchi illokutsion ma'no	ifoda orqali bajariladigan shu ma'lumotni ifodalash

Tadqiqotlar ushbu matnlarda konnotativ ma'no turlari umumiy tasnif asosida ifodalanishini ko'rsatadi. Endilikda tarjima jarayonida ularning qo'llanishi va ahamiyati shu tasnif asosida tahlil qilinadi.

**1. Assotsiativ ma'no** bu so'z yoki iboraning denotativ ma'nosidan tashqari, madaniy, tarixiy, ijtimoiy va emotsional kontekstlar ta'sirida shakllanadigan qo'shimcha semantik qatlamdir. Bu ma'no odatda odamlarning hayotiy tajribasi, madaniy muhit yoki jamiyatdagi umumiy tasavvurlarga asoslanadi. Shu sababli bir xil so'z turli guruhlar yoki auditoriyalar tomonidan har xil ma'noda anglanishi va turlicha hissiy tasavvurlarni uyg'otishi mumkin. Masalan: **"Bull market"** va **"bear market"** metaforalari fond bozori holatini ifodalovchi iqtisodiy metaforalardir. *"Bull market"* narxlarning barqaror o'sishini, *"bear market"* esa pasayishini anglatadi. Bu atamalar XVIII asrda shakllangan bo'lib, hayvonlarning harakatlariga asoslanadi: buqa yuqoriga shox uradi, ayiq esa pastga panja tushiradi<sup>14</sup>.

1987-yil 19-oktabrda yuz bergan Black Monday voqeasida AQSh fond bozori bir kun ichida 22%dan ortiq qulab tushdi. Bu voqeadan so'ng haykaltarosh Arturo Di Modica fond bozoriga bo'lgan ishonchni tiklash uchun Nyu York shahridagi Bowling Green Park hududiga *"Charging Bull"* haykalini o'rnatdi<sup>15</sup>. Bu haykal iqtisodiy kuch, o'sish va optimizmni timsoli sifatida ifodalanadi.

Tarjimada ushbu metaforalar ko'pincha so'zma-so'z buqa bozori va ayiq bozori shaklida beriladi. Biroq ularning kontekstual ma'nosi e'tiborga olinmasa, iqtisodiy pragmatika to'liq ifodalanmaydi. Shu bois tarjimada mazmunan boy alternativlardan foydalanish, masalan, **ko'tariluvchi bozor, narxlar o'sayotgan bozor, o'suvchan** yoki **pasaygan bozor** deb izohlash, to'g'riroq yondashuv hisoblanadi. Masalan: *"The bull market encouraged investors to take more risks, driven by optimism and a strong economy"*<sup>16</sup>. Tarjimasi: **"Bozorning o'sish tendensiyasi, optimizm va barqaror iqtisodiy ko'rsatkichlar fonida, investorlarni yanada faolroq tavakkal qilishga rag'batlantirdi"**. Bu jarayon moliyaviy-iqtisodiy terminlarning semantik tahlilida muhim bo'lib, ularning pragmatik va kommunikativ funksiyalarini aniqlashga yordam beradi.

**"Tiger economy"** - bu kuchli assotsiativ ma'noga ega iqtisodiy metafora bo'lib, Janubi-Sharqiy Osiyodagi to'rt mamlakat: Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong va Tayvanning 1960-1990-yillardagi jadal va barqaror iqtisodiy o'sishini ifodalaydi<sup>17</sup>. Bu yerda *"yo'lbars"* so'zi faqat hayvon emas, balki kuch, tezlik, samaradorlik, intizom va raqobatbardoshlik timsoli sifatida ishlatiladi.

Tarjimada ushbu obrazni to'liq saqlab qolish uchun izohli yoki kombinatsiyalashgan yondashuv tavsiya etiladi. *"Osiyo yo'lbarlari"*, *"kuchli iqtisodiy to'rtlik"* yoki *"jadal o'suvchi iqtisodiyot"* kabi variantlar semantik aniqlik va metaforik obrazlilikni birgalikda ifodalaydi. So'zma-so'z *"yo'lbars iqtisodiyoti"* deb tarjima qilish ayrim kontekstlarda bizning madaniyatimizga begona tushuncha bo'lib tushunarsiz bo'lishi mumkin, shuning uchun madaniy va iqtisodiy kontekstga moslashtirilgan variant afzal. Masalan: *"The tiger economy of South Korea continues to be a global example of rapid growth and innovation"*<sup>18</sup>. Tarjimasi: **"Janubiy Koreya jadal rivojlanayotgan iqtisodiyoti bilan global innovatsiya va iqtisodiy o'sishning yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladi"**. Ushbu turdagi konnotativ ma'no kontekst va bog'lanish orqali so'z yoki iboraning asosiy ma'nosidan kengroq ma'no qatlami yaratilishini ko'rsatadi.

**2. Munosabatni bildiruvchi ma'no** - bu leksik birlik yoki ibora tarkibida mujassam bo'lgan, muallif yoki so'zlovchining predmet, hodisa yoki vaziyatga nisbatan bildirgan subyektiv bahosi, hissiy-emotsional munosabati yoki ideologik pozitsiyasini aks ettiruvchi semantik darajadir. Ushbu daraja odatda konnotativ vositalar, baholovchi sifatlar va stilistik-belgi ifodalovchi birliklar orqali yuzaga chiqadi. Tarjima jarayonida

<sup>14</sup> Lanteri A. Charging bull: Arturo Di Modica and the symbol of Wall Street // Journal of American Culture. – 2011. – № 34(3). – pp. 250-256.

<sup>15</sup> Charteris-Black J. Corpus approaches to critical metaphor analysis. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2004. – 278 p.

<sup>16</sup> Mishkin F.S., Eakins S.G. Financial markets and institutions. – 9th ed. - Boston: Pearson Education, 2017. – p. 412.

<sup>17</sup> Stubbs R. The East Asian tigers: The politics of regional developmentalism. – London: Bloomsbury Publishing, 2005. – 256 p.

<sup>18</sup> Krugman P. The myth of Asia's miracle // Foreign Affairs. – 1994. – № 73(6). – p. 63: "Tiger economies such as South Korea, Singapore, and Taiwan have shown spectacular growth driven by high investment rates and export-oriented policies".

bu ma'no darajasining e'tibordan chetda qolishi matnning kommunikativ-funksional yo'nalishini, emotsional ohangini va stilistik uyg'unligini buzishi mumkin. Shu bois munosabatni bildiruvchi ma'no tarjimada semantik aniqlik va kommunikativ moslikni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi. Masalan, "tax haven" tushunchasining denotativ ma'nosi soliqlarning pastligi bilan tavsiflanadigan hududlarni bildiradi. Biroq uning konnotativ ma'nosi bunday hududlar ko'pincha adolatsiz moliyaviy amaliyotlar, soliqdan bo'yin tovlash va iqtisodiy shaffoflikning yetishmasligi bilan bog'liqligini anglatadi. Misol: "Many corporations establish subsidiaries in **tax havens** to benefit from low taxes, though it often raises ethical concerns"<sup>19</sup>. Tarjimasi: "Ko'plab korporatsiyalar **past soliqqa tortiladigan hududlarda** filiallar tashkil etadi, biroq bunday amaliyot ko'pincha axloqiy e'tirozlarga sabab bo'ladi". Ushbu jumlada "tax haven" atamasi global moliyaviy-huquqiy realiyaga oid birlik bo'lib, uni so'zma-so'z emas, balki funksional-ekvivalentlik tamoyili asosida tarjima qilish talab etiladi. "Past soliqqa tortiladigan hududlar" ifodasi ushbu terminning huquqiy va iqtisodiy konnotatsiyasini saqlagan holda, o'quvchiga tushunarli shaklda yetkazadi. Shuningdek, "ethical concerns" birikmasi baholovchi konnotatsiyaga ega bo'lib, muallifning muayyan harakatga nisbatan axloqiy pozitsiyasini ifodalaydi. Bu subyektiv baho tarjimada aynan semantik mazmun bilan emas, balki emotsional va pragmatik ohangni saqlagan tarzda ifodalangan. Tarjimada bunday birliklarning konnotativ ma'nolari hisobga olinmasa, mazmuniy siljish, stilistik nomuvofiqlik yoki madaniy tushunmovchilik yuzaga kelishi mumkin. Shu bois kontekstga mos yondashuv va tildagi madaniy-ijtimoiy realiyalarni hisobga olish tarjimaning sifatini belgilovchi omillardan biridir.

**3. Hissiy ma'no** (emotional meaning) - so'z, ibora yoki matn orqali o'quvchi yoki tinglovchida hosil qilinadigan his-tuyg'ularni ifodalaydi. Bu ma'no turi odatda so'zning asosiy (denotativ) ma'nosiga qo'shimcha bo'lib, shaxsiy yoki ijtimoiy hissiy javoblarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarjimada so'zning yoki iboraning hissiy ta'sirini yo'qotmaslik uchun mos ifodalarni topish muhim.

Hissiy ma'no odatda shaxsiy (subyektiv) tajribalar, madaniy qadriyatlar va kontekst bilan bog'liq. Sifatlar, metaforalar, epitetlar yoki qo'shimcha hissiy rang-baranglik beruvchi so'zlar orqali yuzaga chiqadi. Vazifasi matnni hissiy jihatdan ta'sirchanroq qilish, tinglovchida ma'lum bir kayfiyat yoki hissiyot uyg'otish uchun ishlatiladi. Misol: "The market crash was **a devastating blow** to small investors, **leaving many in despair**"<sup>20</sup>. Bu jumlada "devastating blow" va "leaving many in despair" iboralari hissiy ta'sirni kuchaytiradi, investorlarning Moliyaviy-iqtisodiy holatidan tashqari, ruhiy ahvolini ham aks ettiradi. Tarjimasi: "Bozor inqirozi kichik investorlar uchun **qattiq zarba** bo'lib, ko'pchilikni umidsizlikka tushirdi". "Qattiq zarba" va "umidsizlikka tushirdi" iboralari Moliyaviy-iqtisodiy inqirozning hissiy jihatini aks ettiradi. Misol: "The relentless rise in inflation has **drained the savings** of ordinary citizens, **causing widespread anxiety**"<sup>21</sup>. Tarjimasi: "Inflyatsiyaning uzluksiz oshishi oddiy fuqarolarning **jamg'armalarini yo'q qilib, keng tarqalgan xavotirni keltirib chiqardi**". Tahlil: "Drained the savings" va "causing widespread anxiety" - "jamg'armalarini yo'q qilib" va "keng tarqalgan xavotirni keltirib chiqardi" iboralari iqtisodiy o'zgarishlarning hissiy jihatini aks ettiradi.

Hissiy ma'noni tarjimada saqlash uchun quyidagi aniq **strategiyalarni** qo'llash zarur:

**1. Ekspressiv sinonimlardan foydalanish.** Tarjimada asosiy ma'noni emas, balki hissiy ta'sirni yetkazuvchi so'z tanlanadi. Masalan: "devastating losses" → "kuchli yo'qotishlar" emas "og'ir talafotlar"; "booming market" → "rivojlanayotgan bozor" emas "jo'shqin bozor".

**2. Metafora va iboralarning emotsional ta'sirini saqlash.** Tarjimada metafora va iboralarning asliy matndagi hissiy ta'sirini yo'qotmaslik muhimdir. Buning uchun ekvivalent obrazli ifodalar tanlanadi, konnotativ ma'no saqlanadi va ohangga e'tibor beriladi. Shuningdek, madaniy kontekst moslashtirilib, o'quvchi uchun tushunarli va hissiy jihatdan ta'sirli tarzda ifodalanadi. Masalan: "The deal collapsed overnight" → "Bitim birdaniga buzildi" emas "Bitim bir kechada qulab tushdi" - bu tarjima dramatik ta'sirni yo'qotmaydi.

<sup>19</sup> Zucman G. The hidden wealth of nations: The scourge of tax havens. – Chicago: University of Chicago Press, 2015. – pp. 25-44.

<sup>20</sup> Malkiel B.G. A random walk down Wall Street. – 12th ed. – New York: W.W. Norton & Company, 2019. – p. 285.

<sup>21</sup> Blanchard O., Johnson D.R. Macroeconomics. – 7th ed. – Boston: Pearson Education, 2017. – pp. 94-96.

**3. Ohangga mos uslubda tarjima qilish.** Asliyatdagi optimistik, ogohlantiruvchi yoki tahlikali ohangni tarjimada aks ettirish lozim. Masalan: “*Investors were alarmed*” → “Investorlar xavotirda bo‘ldi” emas “*Investorlar jiddiy xavotirga tushdi*”.

**4. Kontekstga mos emotsional ifoda tanlash.** Xuddi shunday so‘z turli kontekstlarda turli his uyg‘otishi mumkin, tarjima shu vaziyatga mos ravishda amalga oshiriladi. Masalan: “*toxic debt*” - “*zaharli qarz*” emas “*muammoli qarz*” (salbiy, ammo iqtisodiy emotsionallikni saqlagan). Moliyaviy - iqtisodiy matnlar iqtisodiy vaziyatni o‘quvchiga to‘g‘ri va hissiy ta’sirli qabul qildirish uchun ushbu ma’nolardan foydalanadi, shuning uchun tarjimada bu ta’sirni yo‘qotmaslik muhim.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mill J.S. A system of logic: Ratiocinative and inductive. – Oregon: University Press of the Pacific, 2002. – p. 125
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 120 б.
3. Султонсаидова С., Шарипова У. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Халқ таълими, 2009. – 240 б.
4. Newmark P. A textbook of translation. – New Jersey: Prentice-Hall International, 1988. – p. 39.
5. Cruse D.A. Lexical semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – pp. 49-50.
6. Leech G.N. Semantics: The study of meaning. – London: Penguin Books, 1981. – pp. 23-45:
7. Lyons J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – Vol. 2. – pp. 108-130.
8. Searle J.R. Speech acts: An essay in the philosophy of language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – pp. 30-52
9. Султонсаидова С., Шарипова У. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Халқ таълими, 2009. – 240 б.
10. Бабаханова Д., Нумонов Т., Иминов М. Ўзбек тили услубияти масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – 166 б.
11. Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Бухоро: Бухоро давлат университети нашриёти, 2002. – 168 б.
12. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 120 б.
13. Lanteri A. Charging bull: Arturo Di Modica and the symbol of Wall Street // Journal of American Culture. – 2011. – № 34(3). – pp. 250-256.
14. Charteris-Black J. Corpus approaches to critical metaphor analysis. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2004. – 278 p.
15. Mishkin F.S., Eakins S.G. Financial markets and institutions. – 9th ed. - Boston: Pearson Education, 2017. – p. 412.
16. Stubbs R. The East Asian tigers: The politics of regional developmentalism. – London: Bloomsbury Publishing, 2005. – 256 p.
17. Krugman P. The myth of Asia’s miracle // Foreign Affairs. – 1994. – № 73(6). – p. 63: “Tiger economies such as South Korea, Singapore, and Taiwan have shown spectacular growth driven by high investment rates and export-oriented policies”.
18. Zucman G. The hidden wealth of nations: The scourge of tax havens. – Chicago: University of Chicago Press, 2015. – pp. 25-44.
19. Malkiel B.G. A random walk down Wall Street. – 12th ed. – New York: W.W. Norton & Company, 2019. – p. 285.